



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-73-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari N.Jo‘rayev tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni ijrosini ta’minlash, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi Xalq demokratik partiyasi deputatlik guruhi tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari N.Jo‘rayev tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini muhokama etib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o‘n birinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi Xalq demokratik partiyasi deputatlik guruhi hamda deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni e’tiborga olib, tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari N.Jo‘rayev tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti shartli qabul qilinsin.

2. Inson ijtimoiy xizmatlar markazi direktori N.Jo‘rayevga:

- aholini ijtimoiy himoya qilish, shu jumladan, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha tumandagi davlat idoralari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, shu jumladan keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, odam savdosidan jabrlangan shaxslar, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan va og‘ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar hamda muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;

- hududlarda bolalar o‘rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbazarliklar va boshqa g‘ayri ijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar, ota-onalarga qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ular toifasiga

kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni o‘z vaqtida turar joylar bilan ta’minlash;

- “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash;

- “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi hisobidan ajratiladigan mablag‘larning o‘rnatalgan tartibda, maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash;

- huddudlarda bolalar nafaqasi va moddiy yordam bo‘yicha bo‘layotgan murojaatlar bilan ishslash tizimini yanada oshirish choralarini ko‘rish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarga ayniqsa bolalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy ijtimoiy xizmatlar sifatini bugungi zamon talablari asosida olib borish;

- bolalarni tug‘ma, patologik va orttirilgan suyak-mushak tizimidagi o‘zgarishlar va deformatsiyalarni davolash uchun zarur bo‘lgan tibbiyot buyumlari orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarni odatiy hayotga moslashtirish;

- aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar to‘g‘risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo‘lgan huquqlari bo‘yicha tushuntirish berish;

- nogironligi bo‘lgan shaxslarni zamonaviy elektr yuritma nogironlar aravachalari bilan belgilangan reja asosida ta’minlash;

- mahallalarga biriktirilgan ijtimoiy xodimlarning ish faoliyatini nazoratga olish;

- mahallalardagi bo‘sh turgan ijtimoiy xodimlarining o‘rinlariga malakali mutaxassislarni jalb etish choralarini ko‘rish;

- markazda faoliyat yuritayotgan kadrlarining bilim va malaka ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish;

- tumanda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlari siyosati, ma’daniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimining o‘rinbosari O.Shirinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKNOVICH